

IJOD TUSHUNCHASI VA IJODKORONA YONDASHUVNING JURNALISTIK
MATERIALLARDA AKS ETISHI

Egamova Fazilat

O'zbekiston Jurnalistika va Ommaviy Kommunikatsiyalar Universiteti

Oliy jurnalistika kurslari magistranti

Jurnalistika — ijodiy jarayon maydoni, jurnalist esa ijodkor shaxsdir. Har qanday zamonga nazar tashlansa, qachon va qayerda bo‘lmasin, jurnalistika muayyan qarama-qarshiliklar olamida yashagan, faoliyat yuritgan. Ijod, insonning qaysi sohada bolmasin, yangilik yaratish yolidagi ruhiy va amaliy harakatidir. Ijodkor shaxs oz faoliyati davomida koplak bosqichlardan otadi va uning bu qobilyati yanada rivojlanib kamol topadi. Tarixdan hozirgi davrgacha insoniyat yaratgan moddiy va manaviy boyliklari, qadriyatlariga aylangan jamiki hosilalar, kashfiyotlar inson ijodiy tafakkurining mahsulidir. Oddiy velosipeddan tortib, murakkab texnologiyalargacha ana shu ijodiy tafakkur mevasi sanaladi. Keng manoda qaraydigan bolsak, jamiyat ham inson tadrijiy taraqqiyotining mahsulidir. Jamiyatdagi barcha ijtimoiy hodisalar, munosabatlar, aloqalar, qadriyatlar odamlar tomonidan amalga oshirilgan. Inson oz ongli faoliyati bilan badiiy asarlarni, sanat, axloq, qadriyatlar, etiqod va fanni yaratgan. Ijodning ishlab chiqarish, texnik, ixtirochilik, ilmiy, siyosiy, falsafiy, badiiy, kundalik turmushga oid va boshqa turlari mavjud. Qaysi turga mansubligidan qat'iy nazar, "ijod" tushunchasi olimlar tomonidan chuqur organilgan va hozir ham ushbu mavzuda izlanishlar davom etmoqda.

Ilmiy asoslar: Gneseologlar ijodga nomalum holatning malum tomonga harakati jarayonida yangi bilimning paydo bo‘lish tarzi sifatida qarashadi. Bu faylasuflarning mazkur hodisaga doir qarashi. Masalan, G.Tabidzening fikricha, har qanday kashfiyotni ijod deb hisoblab bolmaydi, faqat uning qandaydir qiymati, qadri bolganini ijod namunasi, deb atash mumkin. S. Korkonosenko esa ijodni, umumiy manoda, inson amaliyoti bilan bogliq har qanday sohada yangilikning paydo bolishi, deb tariflaydi. Uningcha, bunday paytda inson nomalum amallarni ozi anglamagan holda beixtiyor amalga oshiradi. Tadqiqotchi, shuningdek, jurnalistik ijodning o‘ziga xosligini korsatadi.

Ijodkorlikni baholash uchun turli xil fikrlash testlari, shaxsiyat anketalari va ishlash tahlili qo‘llaniladi. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun to‘liq bo‘lmagan yoki yangi elementlarni birlashtirish uchun ochiq bo‘lgan o‘quv vaziyatlaridan foydalanish mumkin. Shu jumladan, jurnaliastika sohasini tanlagan har bir inson avvalo ozidagi ijod zavqini tuya olishi, uni yanada takomillashtirib,ostrib borishi zarur boladi. Jurnalist ijodi — shaxs va uning ruhiyati bilan muntazam shugullanadigan murakkab psixologik jarayon. Shaxsni orab turgan barcha muhit: aql, his-tuygu, erkinlik va ruhiyatning barcha darajasi: ongosti, ong va ongdan tashqarida bolgan jarayonlar bilan bogliq. Jurnalistlar tomonidan har kuni turli mavzu, janrlardagi materiallar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlar, gazetalar sahifalarida bosiladi. Bular: xabar, maqola, intervyu, reportaj, sharh, lavha va boshqalar. Matbuotda har bir janring oz orni, mavqeyi bor. Masalan, xabarda eng muhim dolzarb voqealar aniq, qisqa, londa tarzda ifoda etilsa, intervyuda savol beruvchi bilan javob beruvchining ozaro muloqotlari aks etadi.

Xulosa Jurnalistika faoliyati tabiatiga kora kolami keng, butun insoniyat hayotini qamrab olgan oziga xos sohadir. Shu oziga xoslik jurnalistika sohasi oldiga katta talablarni qoyadi. Jurnalistika boshqa sohalar singari fanning biror-bir tarmogini ajratib olib organish maqsadini oz oldiga qoyolmaydi. Boshqa kasblardan farqli jihati ham uning keng kolamni qamraganida, murakkabligida. Shu manoda jurnalistikani “insonshunoslik ilmi” ham deyishadi. Har qanday

inson, u xoh mashhur sanatkor, xoh davlat arbobi yoki oddiy uy bekasi va yo farrosh bolsin, jurnalist asarining qahramoniga aylanishi mumkin. Ayni paytda chinakam jurnalist bolish uchun faqat bilim, tajriba, keng dunyoqarash kamlik qiladi, shuningdek, ijtimoiy-gumanitar bilimlarni puxta ozlashtirish, qalami otkir, odamlar bilan tez va yaxshi muloqotga kirisha olish ham talab etiladi. Jurnalist yuqori darajadagi manaviy-psixologik madaniyat sohibi sifatida oz faoliyatini risoladagiday olib borishi, ozini huda-behudaga otga-chogga uravermasdan, turli xil tushunmovchiliklarga chalgimasdan, ozidagi bor imkoniyat va iqtidorni namoyish etishi lozim boladi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, psixologiya va soz bilan ishlash sanati mazkur soha egalarining mavqeyini, obroyini, eng muhimi, kasbiy masuliyati qay darajada bolishini belgilab beradi. Ana shu nuqtada ijod psixologiyasining mohiyati yaqqol kozga tashlanadi. Boshqa kasb yoki sohalarga xos ijodiy jarayon bilan jurnalistik faoliyatdagi ijodiy jarayonni solishtirganda bir umumiy manzara, muhim xususiyat anglashiladi. Jurnalist psixologik tafakkurdan foydalangan holda har bir ishlayotgan asariga ijodkorona ruh bagishlashi lozim. Ayniqsa publitsistikada foliyat olib boruvchi ijodkorlar ozlarining har bir asarida oquvchining badiiy tafakkurini yanqada kengaytirishga xizmat qiluvchi mazmunni yoritib berishi lozim boladi.